

MAMLAKATDA IJTIMOIIY TABAQALASHUV TENDENSIYALARI

Xoliyarov Nuriddin Aralovich
tadqiqotchi

Annotatsiya

Maqolada O'zbekistonda ijtimoiy tabaqalashuv jarayonlarining hozirgi holati, jahonda ijtimoiy tabaqalashuvni kamaytirish modellari va tabaqalashuvga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilingan. Shuningdek, Jini koeffitsiyentining o'zgarishi, kambag'allik darajasining pasayishi va o'rta sinfning shakllanish xususiyatlari ko'rib chiqilgan. O'zbekistonda ijtimoiy tabaqalashuv tendensiyalarini kamaytirish borasida taklif-tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy tabaqalashuv, raqamli tabaqalashuv, Jini koeffitsiyenti, kambag'allikni qisqartirish, o'rta sinf, ijtimoiy mobillik, daromadlar tengsizligi.

Аннотация

В статье анализируется текущее состояние процессов социальной стратификации в Узбекистане, модели снижения социальной стратификации в мире и факторы, влияющие на стратификацию. Также рассматриваются изменения коэффициента Джини, снижение уровня бедности и особенности формирования среднего класса. Разработаны рекомендации по снижению тенденций социальной стратификации в Узбекистане.

Ключевые слова: социальная стратификация, цифровая стратификация, коэффициент Джини, снижение уровня бедности, средний класс, социальная мобильность, неравенство доходов.

Abstract

This article analyzes the current state of social stratification processes in Uzbekistan, models of reducing social stratification globally, and factors influencing stratification. Changes in the Gini coefficient, poverty reduction, and the formation of the middle class are also considered. Recommendations for reducing social stratification trends in Uzbekistan are developed.

Keywords: social stratification, digital stratification, Gini coefficient, poverty reduction, middle class, social mobility, income inequality.

Mazkur tadqiqot "ALFRAGANUS UNIVERSITY" nodavlat oliy ta'lim tashkilotida olib borilayotgan AL-9124104362-sonli "Mamlakatda ijtimoiy tabaqalashuv tendensiyalarining doimiy monitoring tizimini yaratish" mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan

KIRISH

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar jamiyatning ijtimoiy tuzilmasini tubdan o'zgartirmoqda. Ijtimoiy tabaqalashuv nafaqat iqtisodiy farqlanishni, balki jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi muhim indikator sifatida namoyon bo'lmoqda. "O'zbekiston — 2030" strategiyasida mamlakatda kambag'allik darajasini qisqartirish, yoshlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish kambag'allik va ishsizlik darajasini kamaytirish, oila va xotin-qizlarni qo'llab-

quvvatlash tizimini kuchaytirish, aholiga birlamchi tibbiy xizmatlarni yanada yaqinlashtirish kabi ustuvor vazifalar belgilab berildi [1].

Ushbu vazifalarni amalga oshirishda koʻzlagan maqsad aholi turmush darajasini oshirib borish, aholi qatlamlari oʻrtasida tengsizlikni yumshatish, aholining kam taʼminlangan qatlamini ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, tabaqalashuvning salbiy oqibatlarini yumshatish va kambagʻallikni qisqartirishdan iboratdir.

2025-yil 25-dekabrda “2026-yil uchun Oʻzbekiston Respublikasining Davlat byudjeti toʻgʻrisida”gi qonuni (OʻRQ-1105-son)¹ qabul qilingan boʻlib, unda aholi turmush darajasini yaxshilash, xalq farovonligini yuksaltirish, “yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirish, atrof-muhitni muhofaza qilish, sogʻlikni saqlash tizimi bilan qamrovni kengaytirish hamda sifatli taʼlimni taʼminlash kabi ijtimoiy soha yoʻnalishlariga ustuvor ahamiyat berilgan. Xususan, davlat byudjeti xarajatlarining qariyb 55 foizi – 220 trln soʻmi ijtimoiy sohaga yoʻnaltirilmoqda. Jumladan, taʼlim sohasiga 100 trln soʻm, sogʻliqni saqlash sohasiga esa 49 trln soʻm ajratilgan [2].

Shuningdek, davlat byudjetidan ishsiz yoki rasmiy daromadga ega boʻlmagan hamda malakasini oshirish va kasbga qayta tayyorlanish istagidagi shaxslarni oʻqitish xarajatlarini vaucher tizimi asosida qoplab berish va “kasb vaucheri” berish, ish beruvchilar va tuman (shahar) kambagʻallikni qisqartirish va bandlikka koʻmaklashish boʻlimlari buyurtmasi asosida oʻqitish uchun 169291,8 mln soʻm mablagʻ ajratilishi rejalashtirilgan [2].

Har qanday mamlakatda ijtimoiy tabaqalashuv tendensiyalarning ortib borishi aholining turmush darajasini pasayishi va kambagʻallar sonining ortishiga olib keladi. Bu oʻz navbatida aholining noroziligiga va iqtisodiy-ijtimoiy barqarorlikning izdan chiqishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli ijtimoiy tabaqalashuv tendensiyalarini tahlil va monitoring qilib borish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Aholining ijtimoiy tabaqalashuv tendensiyalarini kamaytirish borasidagi islohotlarni takomillashtirish borasida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentning 2025-yil 26-dekabrda PF-258-son “Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlariga davlat ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash choralari taqdim etish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Farmoni² eʼlon qilindi. Mazkur farmonga muvofiq:

1) aholini davlat ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash choralari bilan qamrab olish tizimini takomillashtirish;

2) ijtimoiy reyestrda kiritilgan oilalarga davlat ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash choralari taqdim etish tizimini takomillashtirish;

3) “Teng imkon – inklyuziv bandlik” dasturi doirasida 2026-yilda nogironligi boʻlgan shaxslarning bandligini taʼminlash kabi ustuvor vazifalar belgilab berilgan.

¹ Oʻzbekiston Respublikasining Qonuni, 2025-yil 25-dekabr OʻRQ-1105-son “2026-yil uchun Oʻzbekiston Respublikasining Davlat budjeti toʻgʻrisida”gi Qonuni <https://lex.uz/ru/docs/-7949060>

² Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentning 2025-yil 26-dekabrda PF-258-son “Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlariga davlat ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash choralari taqdim etish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Farmoni <https://lex.uz/uz/docs/-7952180>

Ijtimoiy tabaqalashuv muammolari va ularni tahlili borasida bir qator olimlar tadqiqot ishlarini olib borishgan. Mahalliy tadqiqotchilardan R.F.Djumanova davlat minimal ijtimoiy standartlari tizimi qurilish – ijtimoiy jarayonlarni boshqarishni kuchaytirishni muhim yo‘nalish ekanligini ta’kidlab, davlat minimal ijtimoiy standartlari yordamida mamlakatni u yoki bu hududida aholi guruhlarini farovonligini kuzatish va muassasalarning fuqarolar oldidagi ijtimoiy majburiyatlarini bajarilishi ustidan davlat nazoratini kuchaytiradi, chunki belgilangan kafolatlarni bajarmaslik ijtimoiy xavflarni keltirib chiqaradi deb hisoblaydi [3].

Xashimov P.Z. o‘z tadqiqotida daromadlar tabaqalanishini aholi turmush darajasini ifodalovchi ko‘rsatkich sifatida tadqiq etgan. Bunda daromadlar tabaqalanishini Detsil koeffitsiyenti va kvartil guruhlarini asosida aniqlashga harakat qilgan [4].

Dusov K.O. o‘z ilmiy maqolasida ijtimoiy tabaqalanishga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar sifatida aholi real daromadlari, sifatli ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimidan foydalanish, bandlik va ish o‘rinlari, kasb nufuzi kabilarni keltirib, ularning ta’sirini aniqlashga qaratilgan sotsiologik tadqiqotlar o‘tkazish g‘oyasini ilgari suradi [5].

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda ijtimoiy tabaqalashuv tendensiyalarini o‘rganish maqsadida tizimli va kompleks yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot jarayonida me’yoriy-huquqiy hujjatlar, davlat dasturlari, ijtimoiy tabaqalashuvga oid ilmiy manbalar va xorijiy davlatlar tajribasi tahlil qilinadi. Tahlil usuli sifatida qiyosiy va empirik tahlil, tizimli tahlil, statistik tahlil, kontent tahlil, mantiqiy va taqqoslama usullardan foydalaniladi. Tadqiqot natijalari mamlakatimizda ijtimoiy tabaqalashuv tendensiyalarini monitoring tizimini yaratishga ilmiy asos yaratadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Globalashuv va raqamli iqtisodiyot asrida ijtimoiy tabaqalashuv har qanday davlatning barqarorlik koeffitsiyentini belgilovchi asosiy omilga aylandi. O‘zbekistonda davlatning iqtisodiyotdagi rolini kamaytirish va xususiy sektorni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan islohotlar ijtimoiy qatlamlanishning yangi manzarasini yuzaga keltirdi. Endilikda tabaqalashuv faqat “boy-kambag‘al” o‘lchovida emas, balki bilim, raqamli ko‘nikmalar va ijtimoiy kapitalga egalik qilish darajasi bilan ham belgilanmoqda.

Respublikamizda olib borilayotgan iqtisodiy-ijtimoiy islohotlardan ko‘zlangan asosiy maqsad aholi, ya’ni insonlarga munosib turmush sharoitini yaxshilashdan iboratdir. Aholining eng kam ta’minlangan qatlamlarini o‘z vaqtida qo‘llab-quvvatlash mazkur islohotlarni amalga oshirishning garovi hisoblanadi.

Ijtimoiy tabaqalanish – bu jamiyatning iqtisodiy resurslar, hokimiyat va nufuz asosida iyerarxik qatlamlarga bo‘linishidir. Ushbu jarayon natijasida insonlar jamiyatda teng bo‘lmagan mavqelarni egallaydilar.

Sotsiologiya nuqtai nazarida ijtimoiy tabaqalanish (ijtimoiy stratifikatsiya) – bu jamiyat a’zolarining boyligi, hokimiyati, ma’lumoti va ijtimoiy mavqeyiga qarab turli qatlamlarga (tabaqalarga) bo‘linishidir.

Global iqlim o'zgarishlari natijasida vujudga kelayotgan tabiiy va texnogen ofatlar va davlatlar o'rtasida kechayotgan qurolli urushlar (Rossiya va Ukraina, AQSH-Isroil va Eron) qator mamlakatlarda sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish hajmlarini keskin kamayishi oqibatida iste'mol tovarlari narxlari o'sishiga va aholining kambag'allashuv darajasini yanada ortib borishiga sabab bo'lmoqda.

Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, ayni paytda dunyo miqyosida qashshoqlik chegarasi sharoitida (kunlik daromadi 1,9 dollardan kam) istiqomat qilayotgan aholi soni 750 mln.dan ortiq kishini tashkil etmoqda (Yer yuzi aholisining qariyb 10 foizi).

Ijtimoiy tabaqalashuvni kamaytirish masalasida xalqaro hamjamiyat hayotida yetarlicha tajriba to'plangan hamda turli modellar ishlab chiqilgan bo'lsa-da, ularning hech biri boshqa mamlakatlar uchun to'liq andoza bo'lib xizmat qila olmaydi.

Jahondagi xar bir davlat o'zining rivojlanish darajasidan kelib chiqqan holda, ijtimoiy tabaqalashuvni kamaytirish maqsadida qator modellardan foydalanishadi. Jahon tajribasida ijtimoiy tengsizlikni muvozanatlashning bir necha asosiy modellari mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

Skandinaviya modeli (Shvetsiya, Norvegiya, Daniya). Bu modelda ijtimoiy tabaqalashuv eng past darajada bo'lib, bunga progressiv soliq tizimi va yuqori ijtimoiy transfertlar orqali erishiladi. Davlat ta'lim va sog'liqni saqlashni to'liq bepul qilish orqali "ijtimoiy lift"larning uzluksiz ishlashini ta'minlaydi.

Liberal model (AQSH, Buyuk Britaniya). Bu yerda tabaqalashuv yuqori, biroq iqtisodiy erkinlik va raqobat kuchli. Bu model individual yutuqlarni rag'batlantiradi, ammo qatlamlar o'rtasidagi farq kattaligi ijtimoiy keskinlikni keltirib chiqarishi mumkin.

Sharqiy Osiyo modeli (Xitoy, Janubiy Koreya). Ushbu davlatlar qisqa vaqt ichida yuz millionlab odamlarni kambag'allikdan chiqarishga erishdi (Xitoy tajribasi). Bundan asosiy urg'u ta'lim va yuqori texnologik ish o'rinlarini yaratishga qaratilgan bo'lib, bu "o'rta sinf"ning keskin o'sishiga xizmat qildi.

Respublikamizda ijtimoiy tabaqalashuv muammosini kamaytirish borasida oxirgi yillarda bir qator tadbirlar olib borilmoqda. Xususan, O'zbekistonda tabaqalashuvni kamaytirish va aholi turmush darajasini oshirish maqsadida "Temir daftar", "Ayollar daftari", "Mehr daftari" va "Yoshlar daftari" amaliyoti yo'lga qo'yilgan.

Shuningdek, oxirgi yillarda amalga oshirilgan manzilli ko'maklashuv tadbirlari natijasida quyidagi ijobiy natijalarga erishildi. Xususan:

Daromadlar detsentralizatsiyasi: Ilgari daromadlar asosan markaziy shaharlarda to'plangan bo'lsa, "Mahallabay" ishlash tizimi natijasida chekka hududlarda kichik biznes va o'zini-o'zi band qilish orqali daromad topuvchi yangi qatlam shakllandi.

Jini koeffitsiyenti dinamikasi: O'zbekistonda Jini indeksining 0,35 dan 0,33 ga tushishi (2025-yil holatiga ko'ra) mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining "inklyuziv" xarakterga ega ekanligini tasdiqlaydi. Taqqoslash uchun, qo'shni Qozog'istonda bu ko'rsatkich 0,28-0,30 atrofida (kamroq tabaqalashgan, ammo resursga bog'liq), AQSHda esa 0,40 dan yuqori (kuchli tabaqalashgan).

Ijtimoiy himoyaning manzilliligi: “Ijtimoiy reyestr” tizimi tufayli davlat ko‘magining 85% dan ortig‘i haqiqatda muhtoj qatlamga yetib bormoqda, bu esa ijtimoiy adolatsizlik tuyg‘usini kamaytirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida “2025-yil amalga oshirilgan ishlar natijasida, 5 million aholimiz daromadli bo‘lib, ishsizlik darajasida 5,5 foizdan 4,9 foizga tushdi. Qariyb 1,5 million ehtiyojmand aholi kambag‘allikdan chiqdi, ilk bor 1 ming 435 ta mahalla “kambag‘allikdan xoli” hududga aylandi. Ta’kidlash kerakki, yurtimizda kambag‘allik darajasi yil boshidagi 8,9 foizdan 5,8 foizga tushdi” deya ta’kidlab o‘tdi.

Mavjud statistik ma’lumotlarni o‘rganish tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy tabaqalashuv bugungi kunda quyidagi uchta asosiy yo‘nalishda namoyon bo‘lmoqda:

1. Iste‘mol tarkibi va xarid qobiliyati bo‘yicha tabaqalashuv

Iqtisodiy tabaqalashuvning eng yaqqol ko‘rinishi aholining xarajatlar tarkibida ko‘rinadi.

Quyidagi qatlam (Detsil 1-3): Daromadlarning 60-70 foizini faqat oziq-ovqat mahsulotlariga sarflaydi. Bu qatlam uchun inflyatsiya, ayniqsa, oziq-ovqat narxlarining oshishi ijtimoiy zarba berishi mumkin.

Yuqori qatlam (Detsil 9-10): Xarajatlar tarkibida oziq-ovqat ulushi 20 foizdan kam. Asosiy mablag‘lar ta’lim, sog‘likni saqlash, dam olish va kapital jamg‘arishga (ko‘chmas mulk, aksiyalar) yo‘naltiriladi.

2. Raqamli tabaqalashuv

2025-yildagi ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, “Raqamli iqtisodiyot” sharoitida yuqori daromadli qatlamning boyligi texnologik aktivlar hisobiga tezroq o‘smoqda, bu esa “raqamli tabaqalashuv” (digita divide) tushunchasini keltirib chiqarmoqda. Toshkent shahri va viloyat markazlarida axborot texnologiyalariga kirish imkoniyati yuqoriligi “texnologik elita” qatlamini shakllantirmoqda, bu esa chekka hududlar bilan iqtisodiy masofani kengaytirishi mumkin.

Iqtisodiy resurslarning notekis taqsimlanishi “kelajakdagi tabaqalashuv” poydevorini yaratadi:

Prestij ta’lim: Yuqori daromadlar qatlam farzandlari xususiy maktablar va nufuzli xorijiy universitetlarda ta’lim olishi natijasida ularning kelajakdagi va ijtimoiy mavqeyi oldindan kafolatlanadi.

Ijtimoiy lift: Davlat tomonidan joriy etilgan ta’lim grantlari va “Ijtimoiy reyestr”dagi oilalar farzandlari uchun qo‘shimcha kvotalar iqtisodiy tafovut ta’limdagi tafovutga aylanib ketmasligini oldini oluvchi asosiy mexanizm (ijtimoiy lift) bo‘lib xizmat qilmoqda.

3. Hududiy (urbanizatsiya) tabaqalashuv

Iqtisodiy-ijtimoiy tabaqalashuv O‘zbekistonda kuchli hududiy xarakterga ega:

Megapolislar (Toshkent shahri va viloyat markazlari): Bu yerda xizmat ko‘rsatish sohasi va yuqori maoshli ish o‘rinlari konsentratsiyalashgan. Jamiyatning “yuqori va o‘rta-yuqori” qatlami asosan shu yerla to‘plangan.

Qishloq hududlari: Iqtisodiy faoliyat asosan qishloq xo‘jaligi va mavsumiy ishlar bilan bog‘liq bo‘lib, ijtimoiy infratuzilma (gaz, elektr, internet) sifati bo‘yicha shahardan farqlanadi. Bu farq aholining yashash sharoiti bo‘yicha tabaqalashuvini chuqurlashtiradi.

Ijtimoiy-iqtisodiy tabaqalashuv jamiyatda ikki xil oqibatni keltirib chiqaradi: ijobiy jihati – sog‘lom raqobatni kuchaytiradi, insonlarni yuqori malaka olishga va tadbirkorlikka undaydi, salbiy – “ijtimoiy begonalashuv” (social exclusion) hissini paydo qiladi, ya’ni kambag‘al qatlam o‘z kelajagini ishonchini yo‘qotadi.

O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy tabaqalashuv indikatorlari sifatida daromadlari tengsizligi (Jini koeffitsiyenti), kambag‘allik darajasining pasayish dinamikasi va iste‘mol savatchasi bo‘yicha ko‘rsatkichlar tabaqalashuvini keltirishi mumkin (1-jadval) [6].

1-jadval

**O‘zbekistonda 2021-2026-yillardagi daromadlar tengsizligi
(Jini indeksi) va kambag‘allik darajasining pasayishi dinamikasi[6]**

Yil	Jini koeffitsiyenti (0-1)	Kambag‘allik darajasi, foizda
2021	0,39	17,0
2022	0,37	14,0
2023	0,35	11,0
2024	0,34	8,9
2025	0,33	5,8
2026 (prognoz)	0,32	4,5

Mazkur jadvaldagi ma’lumotlardan ko‘rish mumkinki, O‘zbekistonda oxirgi yillarda Jini koeffitsiyentining 0,39 dan 0,3 gacha (2026-yil prognoz) va kambag‘allik darajasi 17,0 foizdan 5,8 foizga tushib, ikkala ko‘rsatkichda ham pasayish tendensiyasi kuzatilgan. Jini indeksining pasayishi davlat tomonidan eng kam ish haqining oshirilishi va manzilli ijtimoiy nafaqalar berilishi natijasidir. Ammo rossiyalik olimlarning fikricha, Jini koeffitsiyenti optimal ko‘rsatkichi – 0,36. Real koeffitsiyentining u yoki bu tomonga og‘ishi jamiyatning ijtimoiy samaradorligi pasayishidan dalolat beradi. Agar koeffitsiyent nolga yaqinlashsa, jamiyatda iqtisodiy rivojlanishda raqobatga rag‘bat yo‘qoladi. Koeffitsiyentning birga (1) yaqinlashishi jamiyatda passivlik darajasini oshishga olib keladi [7].

Ijtimoiy tabaqalashuv nafaqat daromadda, balki mablag‘larning nimaga sarflanishida ham yaqqol ko‘rinadi. Quyidagi qiyosiy jadval aholining turli qatlamlari xarajatlaridagi farqni ko‘rsatadi (2-jadval):

2-jadvalda Engel qonuni amal qilgan, ya’ni kam daromadli qatlam mablag‘ining asosiy qismini tirikchilik uchun sarflasa, yuqori qatlam inson kapitali uchun sarflaydi. Iqtisodiy tabaqalashuv iste‘mol savatchasida yaqqol namoyon bo‘ladi, quyi qatlam daromadining 60-70% qismini oziq-ovqatga sarflasa, yuqori qatlamda bu ko‘rsatkich 20% dan past bo‘lib, asosiy mablag‘lar inson kapitaliga (ta’lim, sog‘liqni saqlash) yo‘naltirilmoqda.

2-jadval

Aholi qatlamlari o'rtasida xarajatlarning sarflanishi¹

Xarajat turi	Quyi qatlam, foizda	Yuqori qatlam, foizda
Oziq-ovqat mahsulotlari	65	18
Transport va aloqa	15	25
Ta'lim va sog'liqni saqlash rivojlantirish	10	30
Boshqa xarajatlar va jamg'arma	10	27

Yuqori qatlam esa inson kapitaliga (ta'lim va salomatlik) investitsiya qilish imkoniyatiga ega, bu esa ijtimoiy tengsizlikning kelajakda ham saqlanib qolishiga sabab bo'lishi mumkin.

Aholi daromadlari darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omillar orasida daromaddan tashqari, chakana narx dinamikasi, iste'mol bozorining tovarlar bilan to'yinganlik darajasi kabilar muhim o'rin tutadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida narx-navoning o'zgarib turishi, ishsizlik va inflyatsiyaning ortishi kabi ijtimoiy muammolarni paydo bo'lishi ijtimoiy tabaqalashuv tendensiyasining ortishiga ta'sir ko'rsatib, aholining boy va kambag'al qatlamlarga ajralishini kuchaytiradi.

Shu sababdan jamiyatda muvozanatni ta'minlash uchun aholining kambag'al qatlamini doimiy ravishda ijtimoiy himoyalash zarur bo'ladi. Ko'p hollarda aholini ijtimoiy himoyalashiga kam ta'minlangan oilalar, ko'p bolalilar, nogironlar, nafaqaxo'rlar muhtoj bo'ladi. Ularga beriladigan yordam iste'mol tovarlari narxi oshishi bilan ko'rgan zararni qoplash (kompensatsiya berish) shaklida yoki ularni qat'iy narxda va normalashtirilgan miqdorda eng zarur tovarlar bilan ta'minlash tarzida amalga oshiriladi. Aholining ijtimoiy himoyalash ishsizlarga nafaqa puli to'lash, ularning malakasining oshirish, kasbini o'zgartirish, ishga joylashtirish yo'nalishlarida ham olib boriladi.

Bugungi zamonaviy sharoitda aholini faqatgina boy va kambag'al qatlamlarni ajratish kifoya emas. Monitoring tizimi ijtimoiy liftlarning ishlashi, ta'lim sifatini hammabopligi va raqamli tengsizlik kabi omillarni kuzatib borish orqali davlatga ijtimoiy siyosatni to'g'ri yo'naltirishga yordam beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xorijiy davlatlar tajribasidan kelib chiqib, O'zbekistonda ijtimoiy tabaqalashuv tendensiyalarini kamaytirish uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

Ta'lim orqali tenglik (Janubiy Koreya tajribasi): ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar, barcha uchun yuqori sifatli ta'limga kirish imkoniyatini yaratish. Bu kambag'allikning avloddan-avlodga o'tishini to'xtatadi;

Progressiv soliqqa tortish elementlari (Yevropa tajribasi): yuqori daromadli qatlam va hashamatli mulklar uchun soliq stavkalarini ijtimoiy adolat tamoyillari asosida qayta ko'rib chiqish;

¹ Muallif ishlanmasi

Kichik aksiyadorlik jamiyati (Germaniya tajribasi): ishchilarni korxona foydasiga sherik qilish tizimini joriy etish orqali mulkiy tabaqalashuvni yumshatish;

Inson kapitaliga investitsiya: kam daromadli qatlam uchun sifatli ta'lim va IT-ko'nikmalarni bepul egallash imkonini beruvchi "Ijtimoiy lift" mexanizmlarini kengaytirish;

O'rta sinfni mustahkamlash: kichik biznes subyektlari uchun soliq yukini kamaytirish orqali aholining asosiy qismini barqaror daromadli qatlama o'tkazish;

Soliq siyosatini optimallashtirish: hashamatli mulklar va o'ta yuqori daromadlar uchun adolatli soliq elementlarini joriy etish.

Xulosa o'rinda shuni ta'kidlash lozimki, mamlakatda ijtimoiy tabaqalashuv darajasini kamaytirish, aholi turmush darajasini oshirish, kam ta'minlangan aholi qatlamini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, yoshlarga bo'layotgan e'tiborni kuchaytirish O'zbekistonning jahonning rivojlangan davlatlari qatoriga chiqishida asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2026-yil 16-fevral PF-21-son "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmoni <https://lex.uz/uz/docs/-8050769>

2. O'zbekiston Respublikasining "2026-yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonuni, 2025-yil 25-dekabr, O'RQ-1105-son.

3. Djumanova R.F Davlat tomonidan aholi turmush darajasini tartibga solish yo'llari / Iqtisod va moliya / Ekonimika i finany № 1, 2012. 43-4b b.

4. Xashimov P.Z., Abdujalilov D.I. Daromadlar tabaqalanishi aholi turmush darajasini ifodalovchi ko'rsatkich sifatida / Iqtisod va moliya / Ekonimika i finany № 4 (136), 2020. 54-61 b.

5. Dusov K.O. O'zbekistonda o'rta mulkdorlar qatlami (o'rta sinf)ning shakllanishi xususiyatlari va mezonlari / Science and innovation ideas in modern education/ Vol. 2. Issue 1.

6. Jahon banki hisoboti: "O'zbekistonda kambag'allik va tengsizlik tahlili", 2025.

7. Гусейнова Р.М., Карманова Н.Е. Общим аршином Джини. // ЭКО 2008. 21-51с.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali



Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhih: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, fevral, 2-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610
Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: 9710. FOCT 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlaro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**